



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

## TASHQI SIYOSATDA “RAQAMLI DIPLOMATIYA” FENOMENI VA UNI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI

**Sherzod Arapov**

*Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*Email: [sherzod.arapov@gmail.com](mailto:sherzod.arapov@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0000-7255-2822*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** raqamli diplomatiya, xalqaro munosabatlar, texnologik innovatsiya, Internet, ijtimoiy tarmoqlar, “Katta ma'lumotlar”.

**Annotatsiya:** Maqolada raqamli diplomatiyaning rivojlanishi davlat tashqi siyosatining ajralmas va muhim qismi sifatida bayon etiladi. Taraqqiyotning bugungi zamonaviy bosqichida davlat tashqi siyosiy vazifalarini amalga oshirishda raqamli diplomatiyaning roli tobora oshib borayotganligiga doir fikrlar ilgari surilgan. Xususan, davlatning tashqi siyosiy vazifalarini amalga oshirish, shu jumladan, tashqi siyosiy faoliyatini axborot bilan samarali ta'minlash hamda ijobiy imijini mustahkamlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Dunyoning deyarli barcha mintaqalarini qamrab olgan axborotlashtirish jarayonlari xalqaro siyosat, shu jumladan, zamonaviy diplomatiya masalalariga metodologik yondashuvlarni yanada kengaytirishni hamda doimiy ravishda o'zgarib borayotgan xalqaro sharoitda tashqi siyosiy vositalarni modellashtirib borishni taqozo etmoqda. Maqolada raqamli diplomatiya konsepsiyasini o'rganishga doir ilmiy yondashuvlar bo'yicha tadqiqot natijalari bayon etilgan. Raqamli diplomatiya tahlil qilishning maxsus usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Muallif ularning eng keng tarqalgan va ommabop ko'rinishlari sirasiga xeshteg tahlili (hashtag tracking), tarmoq tahlili (network analysis), matn ohangi tahlili (sentiment analysis), fikr va qarashlar tahlili (opinion mining) kabilarni kiritadi. Muallifning ta'kidlashicha, raqamli diplomatiyani tadqiq etishda qo'l keluvchi xalqaro munosabatlar nazariyalari – realizm va konstruktivizmdan foydalanish masalasi alohida e'tiborga loyiq. Maqolada ta'kidlanishicha, yaqin istiqbolda sun'iy intellekt ma'lumotlarni tahlil qilishning tilga olingan usullari va

ularning xalqaro munosabatlarni raqamlashtirishni masalalarini o'rganishda qo'llash samaradorligini sezilarli darajada oshirishiga xizmat qiladi.

## "DIGITAL DIPLOMACY" PHENOMENON AND ITS RESEARCH METHODOLOGY IN FOREIGN POLICY

*Sherzod Arapov*

*Doctor of Philosophy in Political Science (PhD),*

*University of World Economy and Diplomacy*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** digital diplomacy, international relations, technological innovation, Internet, social networks, "Big Data"..

**Abstract:** The article discusses the development of digital diplomacy as an indispensable part of foreign policy. The author notes that the role of digital diplomacy in the implementation of foreign policy objectives of the state in modern conditions is rapidly increasing. In particular, information support for foreign policy activities and improving the positive image of the state are being strengthened to promote its national interests. Increasing trends in informatization cover almost all regions of the world and impact on the formation of the architecture of international politics. Methodological approaches to international politics are expanding, foreign policy instruments are being modeled in relation to constantly changing conditions, and new diplomatic mechanisms are being more actively used. The author also examines conceptual approaches relative to the study of the digital diplomacy. Digital diplomacy envisages the application of the hashtag tracking, network analysis, sentiment analysis, and opinion mining in the study of digital diplomacy. The author maintains that the theories of realism and constructivism are relevant to the study of the digital diplomacy. The results of the given research demonstrate that in the short-run, artificial intelligence significantly increases the efficiency of methods of data analysis in digital diplomacy and its application relative to the study of digitalization of international relations.

## ФЕНОМЕН «ЦИФРОВАЯ ДИПЛОМАТИЯ» И МЕТОДОЛОГИЯ ЕЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ

*Шерзод Арапов*

*доктор философии в политологии (PhD),*

*Университет мировой экономики и дипломатии*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Статья рассматривает развитие цифровой дипломатия, цифровой дипломатии как неотъемлемый инструмент

международные отношения, внешней политики. Автором отмечается, что роль техно-логическая инновация, цифровой дипломатии в реализации Интернет, социальные сети, внешнеполитических задач государства в “Большие данные”. современных условиях стремительно возрастает. В частности, усиливается информационное обеспечение внешнеполитической деятельности и укрепление позитивного имиджа государства с целью продвижения его национальных интересов. Усиливающиеся тенденции информатизации охватывают практически все регионы мира и влияют на формирование архитектуры международной политики. Расширяются методологические подходы к международной политике, моделируются инструменты внешней политики применительно к постоянно меняющимся условиям, активнее применяются новые дипломатические механизмы. В статье рассматриваются научные подходы к изучению концепции цифровой дипломатии. Цифровая дипломатия требует использования особых методов анализа, к самым распространенным и востребованным автор относит такие методы, как анализ хэштега (hashtag tracking), сетевой анализ (network analysis), сентимент-анализ (sentiment analysis), анализ мнений и взглядов (opinion mining). По мнению автора, заслуживает внимания вопрос об использовании теорий международных отношений – реализма, конструктивизма, которые являются наиболее релевантными для изучения цифровой дипломатии. В статье отмечается, что в ближайшем будущем искусственный интеллект значительно повысит эффективность указанных способов анализа данных и его использования в изучении цифровизации международных отношений.

## KIRISH

Kirish. Diplomatija yillar davomida tashqi siyosiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida mavjud bo‘lib kelmoqda. O‘tgan bir necha o‘n yillar davomida diplomatija bir qator institutsional o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechirdi. Xususan, Internet va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi, jamiyatning axborotlashuvi va raqamlashtirish jarayonlariga o‘tish tendensiyalari raqamli diplomatiyaning shakllanishi va rivojlanishiga turtki berdi. Ayniqsa, tezkor axborot yetkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va unga ta’sir etish vositalari sifatida raqamli media turlarining tobora rivojlanib, ommalashib borishi tashqi siyosiy idoralar oldida diplomatik faoliyatni olib borishning usul va vositalarini raqamli media bilan uyg‘unligini ta’minlash hamda ular imkoniyatlaridan samarali foydalanishni o‘zlashtirish vazifalarini qo‘ydi.

Manbalarda “raqamli media” atamasining quyidagi talqinlarini qayd etish mumkin:

(1) Ijtimoiy media ma’nosida: jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan manfaatdor tomonlar (tanish doiralar, hamkasblar, mijozlar va boshqalar) bilan axborot ulashish maqsadida qo‘llaniluvchi muloqotning onlayn shakli. Bugungi kunda keng ommalashgan Twitter, Instagram

va Facebook kabi ijtimoiy media tarmoqlarining muhim xususiyati foydalanuvchilarning boshqa kontent yaratuvchilar nashrlarini kuzatib borishlari va ularga javob yo'llashlaridir. Masalan, Twitter mikroblogida yaratilgan xabarlarini foydalanuvchilar bosh-qalarga qayta yuborishi (retweet) hamda Facebook tarmog'idagi nashrlarga javob qoldirishlari mumkin. Teskari aloqa o'rnatish imkonini beruvchi bloglar va veb-saytlar hamda radio, televideniye va bosma nashrlarni o'z ichiga oluvchi an'anaviy sanoat mediasiga nisbatan ijtimoiy media tarmoqlari o'z ishtirokchilariga axborotni yetkazishdagi tezkorligi bilan ajralib turadi.

(2) Barcha ko'rinishdagi elektron ma'lumotlar (matnlar, ma'lumotlar bazasi, rasmlar, audio va video)ga nisbatan qo'llaniladi. Raqamli media, shuningdek, ma'lumotlarni jamlovchi elektron qurilmalar (magnetik tasmalar va disklar va b.) va elektron pochta, tezkor xabar yo'llash (text and instant messaging), matnli chat va video qo'ng'iroq kabi ma'lumot uzatuvchi muloqot usullariga ham oid bo'lishi mumkin.

(3) Kompyuter va mobil qurilmalar veb-sayti va bloglarida chop etiladigan televideniye tarmog'i, gazeta va jurnal yangiliklari.

(4) Bevosita raqamli diplomatiya tushunchasi xususida so'z ketganda uning "Diplomatiya ensiklopediyasi" ("The Encyclopedia of Diplomacy")da taklif etilgan talqiniga e'tibor qaratish mumkin: "Raqamli diplomatiya davlatlar tomonidan siyosiy maqsadlarga erishish yo'lida raqamli platformalar imkoniyatlarini qo'llash usullarini ko'zda tutuvchi amaliyot". Yuqorida keltirilgan raqamli media va raqamli diplomatiyaga oid talqinlardan veb-saytlar, bloglar, elektron gazeta va jurnallar hamda ijtimoiy media tarmoqlari raqamli diplomatiyani olib borish yo'lida o'ziga xos virtual maydonchalar, kompyuter vositalari, aqlli telefonlar, planshetlar va turli gadjetlar esa bunday faoliyatni olib borishning vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy jamoatchilik vakillari tomonidan raqamli diplomatiyaning bir necha ta'riflari taklif etilgan. Xususan, Xenson mazkur atamani diplomatik maqsadlarga erishishda Internet, axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ma'nosida qo'llaydi. Buyuk Britaniyaning tashqi ishlar idorasi raqamli diplomatiyani tashqi siyosiy masalalarni hal etishning vositasi sifatida ko'radi.

Tom ma'noda ijtimoiy tarmoqlar diplomatiya ko'rinishi va xalqning hukumat tomonidan xabardor qilish shakliga o'zgartirish yasamoqda. Bunda diplomatlar ijtimoiy tarmoqlar evolutsiyasiga moslashib borishlari to'g'ridan to'g'ri va samarali yo'l bilan ko'proq fuqarolarni tinglashlari davr talabiga aylanayotganligi sharoitida raqamli diplomatiya, xususan, "Twitter diplomatiya" hukumat idoralari o'rtasida borgan sayin keng muomalaga kirib borayotgan atamaga aylanib bormoqda. Ayni paytda, Amerikaning "Burson-Marsteller" agentligi twitplomatiya an'anaviy diplomatiyani o'rni bosa olmasligi, aksincha, uning diplomatiyaning bilan uyg'unlikda ishlab, o'z faoliyat ko'lamini kengaytirib borayotganligini bir necha bor qayd etgan.

Ta'kidlash joizki, xalqaro munosabatlarni raqamlashtirish sohasida sodir bo'layotgan jarayonlarni ilmiy jihatdan mushohada qilish raqamli diplomatiyaning empirik asosi, uning metodologik jihatlari, shu jumladan tahlil qilishning ilmiy usullarini o'rganishni taqozo qiladi.

Mazkur maqolada raqamli diplomatiyani tadqiq etishning metodologik asoslarini o'rganish maqsad qilib olingan. Tadqiqotning asosiy qismi xalqaro munosabatlar tizimida raqamli diplomatiya fenomenining ilmiy-metodologik jihatlari haqida bayon qiladi.

Raqamli diplomatiya: ilmiy va metodologik yondashuvlar

Raqamli texnologiyalar asrida diplomatik xizmatning mamlakat milliy manfaatlarini ilgari surishdagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan tashqi siyosiy idora faoliyatining zamonaviy

texnologiya yutuqlaridan foydalanishiga bevosita bogʻliqdir. Diplomatining kelajagi raqamli soha rivoji bilan bogʻliq. Raqamli diplomatining xalqaro jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa axborot urushlari davrida raqamli diplo-ma-tiyaning xorijiy jamoatchilik bilan aloqa vositasi sifatida mamlakat tashqi siyosatini axborot bilan taʼminlash hamda uning milliy manfaatlarini himoya qilishda tutgan oʻmi va rolini belgilab beradi.

Ayni paytda raqamli diplomatiya sohasida faoliyatning samarasini taʼminlash mazkur yoʻnalishdagi siyosatning ilmiy va ekspert salohiyatini yuksaltirish, raqamli diplomatiya fenomeni va uning metodologiyasi yuzasidan chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

Taʼkidlash joizki, raqamli diplomatiya tahlil qilishning maxsus usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Eng keng tarqalgan va ommabop koʻrinishlaridan quyidagilarni alohida ajratib koʻrsatish mumkin: xeshteg tahlili (hashtag tracking), tarmoq tahlili (network analysis), matn ohangi tahlili (sentiment analysis), fikr va qarashlar tahlili (opinion mining). Xeshteg tahlili muayyan mavzu boʻyicha muho-kamaning borishi, alohida qiziqish uygʻotayotgan postlar, obunachilar orasida eng koʻp tanilib borayotgan muhokama ishtirokchilari bilan bogʻliq savol-larga javob berishni oʻz ichiga oladi. Tarmoq tahlili axborot diskursini yaratishga xizmat qiluvchi asosiy blogerlar va xalqaro eshittirish kanallarini aniqlashga qaratilgan. Matn ohangi tahlili foydalanuvchilarning siyosiy pozitsiyalarini aniqlashga yordam berib, mazkur usul orqali foydalanuvchilarning taklif qilingan mavzularga munosabatini baholashga erishiladi. Foydalanuvchi fikrlarini tahlil qilish matnlar bilan ishlash, tez qoʻllaniladigan soʻzlar va atamalarni oʻrganish orqali postlar va sharhlarning mazmuni haqida bilim hosil qilinadi.

Zamonaviy dasturlash vositalari “katta maʼlumotlar” (“Big data”) – barcha turdagi xabarlar, foydalanuvchilar haqidagi maʼlumotlar va mavjud teskari aloqalarni jamlab, ularning asosida muayyan masala boʻyicha sharhlarning toʻliq kontent-tahlilini amalga oshirish imkonini beradi.

Raqamli diplomatini tadqiq etishda qoʻl keluvchi xalqaro munosabatlar nazariyalari–realizm va konstruktivizmdan foydalanish masalasi alohida eʼtibor-ga loyiqdir. Realizm tadqiqotchilarga davlat raqamli diplomatiasini va yoʻnalishlarini belgilab beruvchi milliy xavfsizlik va tashqi siyosat maqsadlarini tushunish imkonini beradi. Davlat Internet auditoriyasi uchun asosiy aktor hamda yangiliklar va kun tartibini shakllantiruvchi rolni bajarmoqda. Twitter platfor-masida mavjud amaldagi prezidentlar, hukumat va parlament rahbarlari va boʻshqa-larning profillari va Facebook platformasidagi mazkur nomdagi akkauntlar milliy xavfsizlik va tashqi siyosat maqsadlariga erishish yoʻlida koʻp foyda-lanuvchilarini axborot bilan taʼminlamoqda.

Raqamli diplomatiya masalalarini tadqiq etuvchi bir qator nazariy maktablar orasida konstruktivizm nazariyasi ayniqsa ahamiyatli. Ularning vakillari qatoriga N. Onuf., R. Eshli, F. Kratochvil, Dj. Rugi, A. Vent va boshqa olimlarni kiritib oʻtish mumkin. Konstruktivizm tadqiqotchilar uchun raqamli diplomatini oʻrganishda mutlaqo yangi yondashuvni taklif etadi. Bu esa, oʻz navbatida, konstruktivistik nazariyaning rivojlanishiga ham sezilarli taʼsir etishi mumkin. Internet foydalanuvchilarining kayfiyati, reaksiyalari va sharhlarda keltirilgan ohanglar tahlili muayyan mamlakatdagi maʼlum siyosiy masalalar yuzasidan ijtimoiy guruhlarining oʻziga xosligi, qadriyatlar tizimi hamda oʻzgaruvchanlik xos boʻlgan xohish-irodalarini tushunish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Bundan tashqari, konstruktivizm usullaridan foydalanish alohida hukumat postlarining maq-sadli auditoriya qadriyatlar tizimining yoʻnalishlariga taʼsiri haqida ham xulosa chiqa-rish imkonini beradi.



Yaqin istiqbolda sun'iy intellektning ma'lumotlarni tahlil qilishning tilga olingan usullari va ularning xalqaro munosabatlarni raqamlash-tirishning masalalarini o'rganishda qo'llash samaradorligining sezi-larli darajada oshirishiga katta ishonch bildirish mumkin. Amaliyotda ma'lumotlar diplo-ma-ti-ya-si ("Data diplomacy") imkoniyatlaridan mutaxassislar tomonidan raqamli dip-lo-ma-tiya strategiyalarini belgilash, samarali postlarni va xabarlarini tayyorlash, shu-ning-dek, dezinformatsiya manbalarini tezkor aniqlash masalalarida qo'llanilib kelinayotganligi ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Diplomatiya masalalari bo'yicha Oksford universiteti professori Korneliy Bjolaning tadqiqot ishlarida raqamli diplomatiya sohasidagi jarayonlarning o'zi-ga xos jihatlari ochib berilgan. Xususan, uning fikricha, texnologik taraqqiyotning ikki jihatini baholash mumkin: salbiy oqibatlar va ijobiy jihatlari. Ijtimoiy aloqa-ga kirishishning yangi imkoniyatlari uchun poydevor qo'yish orqali uzoq mud-datli istiqbolda qo'llab borish mumkin bo'lgan yangicha fikrlash va innovatsion amaliyotlarni joriy etishga ko'maklashadi.

Ikki qarama-qarshi jarayonlarni o'rganish raqamli texnologiyalarning diplo-ma-tik munosabatlarga nisbatan transformativ salohiyatini baholash nuqtayi naza-ridan muhimdir. Birinchi yondashuv texnologik taraqqiyotning keskin rivojlanish jarayonidan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni qo'llashni yoqlaydi. Misol tariqasida, telefon ixtiro qilinganidan so'ng 75 yil o'tib, uning foyda-la-nuvchilari soni 100 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichga eri-shish uchun uyali telefonga 16 yil va Facebook ijtimoiy tarmog'iga atigi 4,5 yil kifoya bo'ldi. Texnologik taraqqiyot Tashqi ishlar vazirliklari oldiga faoliyatda raqamli texnologiyalar salohiyatini ilg'ab yetish uchun o'z salohiyatini tako-millashtirish, qisqa va uzoq muddatli tashqi siyosiy maqsadlarni ta'minlashda ular imko-niyat-laridan maqsadli foydalanish yuzasidan muhim vazifalar qo'y-moqda. Ushbu chaqiriqlarga munosib javob bera olmaslik, tashqi siyosiy idoralarni xalqaro may-donda siyosiy jarayonlar natijalariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini cheklashga olib kelishi mumkin. Texnologik o'sish sur'atlarining rivojlanishi munosabati bilan quyidagi uchta sohaning Tashqi ishlar vazirliklari tomonidan yaqindan o'rga-nishlari, fikrimizcha, muhim ahamiyat kasb etadi.

Institutsionallikdan bosqichma-bosqich ekosistema yondashuvi tomon hara-ka-t-lanish: texnologik innovatsiyalarning yutuq va muvaffaqiyatsizligi ko'p jihatdan ularni qamrab oluvchi ekosistema sifatiga bog'liq ekanligidan kelib chiqib, moslashish lozim bo'lgan raqamli jarayonlarni to'g'ri aniqlab olish nuqtayi nazaridan Tashqi ishlar vazirliklari o'zlari mavjud bo'lgan texnologik muhitni mukammalroq idrok etishlari talab etiladi. Misol tariqasida, 3G mobil texnologiya ijtimoiy media tarmoqlarning rivojlanishi va keng tarqalishiga olib keldi. Shu singari yaqin yillarda joriy etilishi kutilayotgan 5G texnologiyasining ham tex-nologik o'sishni yangi bosqichga olib chiqishi, shu jumladan diplomatik fao-liyatga ham tegishli vositalarni jalb etish imkoniyatining paydo bo'lishi, xususan, konsullik xizmatlari ko'rsatishning sun'iy intellekt ko'rinishlaridan foydalanish amaliyoti yo'lga qo'yilishi mumkin.

Munosabat bildirish bilan cheklanishdan tashabbuskor harakatga o'tish: texno-logik rivojlanish davrida yetakchi o'rinni egallash kognitiv o'zgarishni talab etib, bu amalda sohada yuz berayotgan jarayonlarni kuzatib borish bilan chekla-nish emas, balki yangi jarayonlarni ham oldindan ko'ra bilishlik va ularni yuzaga keltira olishlikni ko'zda tutadi. Ijtimoiy media tarmoqlarining oshib borayotgan rolga munosib baho bergan holda tashqi siyosiy idoralar mazkur resurslarning imkoniyatlarini jamoat diplomatiyasidagi o'z mavqelarini mustahkamlash, inqi-roz-li vaziyatlarda muloqot o'rnatish, diasporalarni boshqarish singari maqsad-larda safarbar etishni o'zlashtirdilar. Ayni paytda yangi jarayonlarni oldindan baholash orqali tashqi

siyosiy faoliyatga mas'ul idoralar raqamli amaliyotning yangi qoida va andozalarini boshqa ishtirokchilardan avvalroq o'rnatish yo'li bilan keskin raqobat xos bo'lgan raqamli muhitda qulay vaziyatni egallashlari mumkin. Boshqacha aytganda, yangi jarayonlarning tashabbuskoriga aylanish raqamli soha yetakchilariga qo'shimcha e'tirof va ta'sirga ega bo'lishlik, diplomatik lider va innovator sifatida o'z "yumshoq kuchi"ga oid mavqelarini mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

Markazlashtirishdan tarmoqlar orqali ishlashga o'tish: yuqori darajadagi texnologik innovatsiya xos bo'lgan raqamli muhit iyerarxiya va muayyan tartib-taomillardan ko'ra, ijodkorlik va tajriba-sinovni yoqlaydi va qo'llab-quvvatlaydi. Bu texnologik chaqiriqlarga munosib javob berish uchun institutsional markazlashtirish ahamiyatini pasaytirish orqali muayyan cheklovlarni bartaraf etish va diplomatik tarmoqlar vositasida raqamli munosabatga kirishishning shakl va usullarini takomillashtirishni taqozo etadi. Misol tariqasida, xalqaro tashkilotlar qoshidagi diplomatik missiyalar ko'p jabhada raqamli texnologiyalar salohiyatini o'rganish va o'zlashtirishga qaratilgan yaqin hamkorlikdagi sa'y-harakatlardan manfaatdordirlar. Shu singari, ixtiloflarga boy va tahlikali mintaqalarda joylashgan elchixona va konsullik muassasalari ham mojaroli vaziyatlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid o'zlarining ilg'or tajribalari bilan o'rtoqlashishlari mumkin bo'ladi.

Ikkinchi mega-trendga raqamli texnologiyalarning qo'llanilishiga qarshi bo'lgan boshqa yo'nalish xosdir. Tashqi siyosiy idoralar tomonidan texnologik rivojlanish natijasida yuzaga keluvchi imkoniyatlardan keng iste'foda qilishdan farqli ravishda, muxolif yo'nalish vakillari sohani raqamlashtirishning kamchi-liklariga e'tibor qaratadilar. Xususan, quyida ko'riladigan algoritmik determinizm va siyosiy xarakterdagi fragmentatsiya yuqorida keltirilgan mega-trend o'zini namoyon etuvchi asosiy ko'rinishlardan hisoblanadi.

Muloqot o'rnatishdan axborot uzatishning algoritmik vositalari tomon yuzlanish: TIVning raqamli texnologiyalarga bo'lgan qiziqishining asosiy jihatlaridan biri virtual makonda jamoatchilik fikrini shakllantiruvchilar e'tiborini tortish, shuningdek, aholini turli segmentlari bilan aloqaga kirishishning omuhta tarmoqlarini rivojlan-tirish bilan bog'lashimiz mumkin. Bu jarayonda algoritmik instrumentlarning onlayn muloqotni monitoring qilish, kun tartibini belgilash va axbo-rotlarni tarqatishning vositasi sifatida tobora keng qo'llanilib borayotganligi bejiz emas. So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ladiki, Twitter akkauntlarning 15% gacha bo'lgan qismi botlardan iborat bo'lib, bu raqam o'sib borish tendensiyasiga egaligi tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Raqamli integratsiyadan siyosiy fragmentatsiya tomon: Raqamli diplomatiyani qo'llashning o'zi yagona maqsadga aylanib qolmasligi, balki uning belgilab olingan tegishli tashqi siyosiy maqsadlarga qaratilgan bo'lishi lozimligini esda tutmoq lozim. Ayniqsa, boshlang'ich bosqichlarga xos bo'lgan ilg'or texnologiyalardan foydalanishning maqsadli strategiyasining mavjud emasligi raqamli diplomatiyaning tashqi siyosatdan uzilib qolishiga olib kelishi mumkin. Tashqi siyosiy maqsadlarni qo'llash yuzasidan mos strategiya tanlanmasdan, raqamli texnologiyalarni tezkor qabul qilish va qo'llashlik siyosiy jihatdan muvofiqlashtirish hamda implementatsiya bilan bog'liq muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

#### XULOSA

Raqamli diplomatiya Internet hamda raqamli texnologiyalardan tashqi siyosiy idoralar va xorijdagi diplomatik missiyalar tomonidan xorijiy jamoatchilik fikrini monitoring qilish, uni zarur axborot bilan ta'minlash va jamoatchilik bilan muloqotga kirishish maqsadlarida keng foydalanishni ko'zda tutadi. Bunda raqamli diplomatiya kompyuter, aqlli telefonlar va

planshetlar veb-sayt va mobil ilovalaridagi elektron gazeta, jurnallar, bloglar hamda ijtimoiy media tarmoqlari (Twitter mikroblogi, Facebook, VKontakte, YouTube, Flickr va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. O'z navbatida, raqamli diplomatiyaning kelajagi Tashqi ishlar va zirlklarining texnologik o'sish hisobiga yuzaga kelgan imkoniyatlardan maqsadli foydalanishni o'zlashtirishlariga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Axborot tizimlari va kompyuter axborot texnologiyalari sohasidagi tadqiqotchilarning fikricha, Web 2.0 ijtimoiy media platformalar va virtual hamkorlik texnologiyalari axborotni to'plash va tahlil qilish yuzasidan muvaffaqiyatli bo'lsa-da, istak-xohishlarni anglab yetish va bashorat qilish, munosabatlarni boshqarish, mavhumlikni kamaytirish kabilarda qator qiyinchilik bilan yuzlanishi mumkin. Aksincha, ijtimoiy soha psixologlari, neyrobiolog va siyosatshunos olimlarning ta'kidlashlaricha, yuzma-yuz insoniy muloqotning katta hajmdagi ma'lumotni qayta ishlash sohasidagi imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, biroq tomonlarning istak-xohishini ilg'ash, munosabatlarni qurish sohasida muvaffaqiyatli deb ko'riladi.

Raqamli diplomatiya ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida realizm va konstruktivizm nazariyalari orqali o'rganilishi mumkin. Realizm nazariyasi davlat tomonidan raqamli diplomatiyani amalga oshirishning mantaqiy asosini davlat milliy manfaatlari bilan bog'lasa, konstruktivizm esa mazkur turdagi diplomatiyani maqsadli auditoriya hamda siyosiy aktorlarning xulq-atvori va qadriyatlar tizimi bilan bog'liq holda talqin qilishga intiladi.

Katta ma'lumotlar (Big data)dan foydalanish masalasi raqamli diplomatiyani tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Sababi, ushbu turdagi ma'lumotlar asosida ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy kuchlar muvozanati yuzasidan yaxlit tasavvur hosil qilishga erishiladi. Xeshteg va tarmoq tahlillari hamda matn ohangi va qarashlar tahlili usullari esa raqamli diplomatiyani o'rganishning asosiy vositalari hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hayden C. (2018). Digital Diplomacy. The Encyclopedia of Diplomacy. Internetdagi manzil: <https://doi.org/10.1002/9781118885154.dipl0068> (Manbaga murojaat etilgan sana: 05.06.2023).
2. Fergus Hanson. (2010). "A Digital DFAT: Joining the 21st Century." in Digital Diplomacy: Theory and Practice, ed. Carnelius Bjola, and Marcus Holmes (New York: Routledge, 2015), 35p.
3. The Foreign and Commonwealth Office, "Digital strategy," (29 October, 2015). Internetdagi manzil: [https://www.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment\\_data/file/39629/AB\\_12-11-14\\_Digital\\_strategy.pdf](https://www.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/39629/AB_12-11-14_Digital_strategy.pdf) (Manbaga murojaat etilgan sana: 05.11.2023).
4. Babb C. Is 'Twiplomacy' Replacing Traditional Diplomacy? (01-11-2013). Internetdagi manzil: <https://www.voanews.com/silicon-valley-technology/twiplomacy-replacing-traditional-diplomacy> (Manbaga murojaat etilgan sana: 10.02.2023).
5. Onuf, Nicholas Greenwood (2012). World of our making: rules and rule in social theory and international relations. Routledge; Onuf, Nicholas. "Constructivism." World of Our Making. Routledge, 2012. 47-77; Onuf, Nicholas. "Institutions, intentions and international relations." Review of International Studies 28.2 (2002): 211-228 and etc.
6. Ashley, Richard K. (1981). "Political Realism and Human Interests". International Studies Quarterly. 25 (2): 204. doi:10.2307/2600353. ISSN 0020-8833; Ashley, Richard K. (1996). "The Achievements of Poststructuralism". In Smith, Steve; Booth, Ken; Zalewski,



Marysia. *International Theory: Positivism and Beyond*. Cambridge: Cambridge University Press. pp. 240–253. ISBN 978-0-521-47948-6.

7. Friedrich Kratochwil (1981) *The Humean Conception of International Relations*, Center of International Studies, Princeton University, Princeton, N.J.; Friedrich Kratochwil. *Rules, Norms and Decisions, On the Conditions of Practical and Legal Reasoning in International Relations and Domestic Society* (Cambridge, England: Cambridge University Press, 1989), Paperback edition March 1991.

8. Ruggie, John Gerard. (2002). *Constructing the World Polity: essays on international institutionalisation*. Routledge; Ruggie, John Gerard. "The past as prologue? Interests, identity, and American foreign policy." *International security* 21.4 (1997): 89-125.

9. Alexander Wendt. (1999). *Social Theory of International Politics*, Cambridge University Press, ISBN 0-521-46960-0; Alexander Wendt. "Constructing international politics" in *International Security*, vol. 20, no. 1, 1995; Alexander Wendt. "The state as person in international theory" in *Review of International Studies*, vol. 30, no. 2, 2004.

10. Bjola, Corneliu, and Marcus Holmes (2015). *Digital diplomacy: Theory and practice*. Routledge; Bjola, Corneliu, and Markus Kornprobst. *Understanding international diplomacy: theory, practice and ethics*. Routledge, 2018; Bjola, Corneliu. "Understanding enmity and friendship in world politics: The case for a diplomatic approach." *The Hague Journal of Diplomacy* 8.1 (2013): 1-20; Jiang, Lu, and Corneliu Bjola. "Social media and public diplomacy: a comparative analysis of the digital diplomatic strategies of the EU, US and Japan in China." *Digital Diplomacy*. Routledge, 2015. 85-102.

11. C.Bjola. *Trends and Counter-trends in Digital Diplomacy*. Available at: <https://medium.com/digital-diplomacy/trends-and-counter-trends-in-digital-diplomacy-f1f2c1625f26>